



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

Kutubxonalar faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 1-iyundagi PQ-177-son va Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 3-iyuldagi 271-son qarorlari bilan Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tasarrufidagi Respublika Bolalar kutubxonasi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi tasarrufiga o‘tkazilishi munosabati bilan, hozirda vazirlik tizimida 10 118 ta umumta’lim maktablari kutubxonalari, 14 ta hududiy “Bolalar kutubxonalari”ga amaliy va uslubiy yordam ko‘rsatish hamda sohaga oid yangiliklar bilan yaqindan tanishtirishda muammolar yuzaga kelishini oldini olish maqsadida **buyuraman:**

1. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetining Respublika Bolalar kutubxonasiga belgilangan vazifalarni Respublika pedagogik ta’lim resurs markaziga (keyingi o‘rinlarda – Ta’lim resurs markazi) o‘tkazish yuzasidan taklifiga rozilik berilsin.

2. Ta’lim resurs markazi moddiy-texnika bazasi bilan birgalikda Toshkent shahar, Sergeli tumani, 5-mavzesida joylashgan Toshkent shahar Bolalar kutubxonasi binosiga joylashtirilsin.

3. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti (A.Qirg‘izboyev), Maktabdan tashqari ta’limni tashkil etish bo‘limi (I.Xoldarova)ga:

Ta’lim resurs markazining Ustaviga Respublika Bolalar kutubxonasining funktsiya va vazifalaridan kelib chiqib, o‘zgartirish hamda qo‘shimchalar kiritish;

15 kun muddatda Ustav loyihasini Adliya vazirligidan ro‘yxatdan o‘tkazish;

Ta’lim resurs markazining normativ huquqiy hujjatlariga o‘zgartirishlar kiritish vazifalari yuklatilsin.

4. Devonxona (D.Isxakova) ushbu buyruqni bir kun muddatda tegishli mas’ullarga yetkazilishini ta’minlasin.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosarlari D.Kenjaye va U.Begimqulovlar zimmasiga yuklatilsin.

Vazir

Toshkent sh.,
2023-yil “24” iyul,
217-son



X. Umarova